

MUTOLAA - THE KEY TO A PROSPEROUS LIFE!

Obidahon Yuldasheva
Tashkent State Pedagogy
University student

Annotation: As long as a person lives, a goal, intention, dream is always embodied in harmony. It is unknown at this time what he will do after leaving the post. We acquire all knowledge, knowledge, skills and abilities through Reading. Therefore, we should always be diligent in reading...

Keywords: Reading, Purpose, Time Management,

MUTOLAA -- FAROVON HAYOT KALITI!

Obidaxon Yo'ldasheva
Toshkent Davlat Pedagogika
Universtiteti talabasi

Annotatsiya: . Inson yashar ekan unda bir maqsad, niyyat, orzu hamisha hamohang tarzda gavdalanadi. Maqsadning nima ekanligi, niyyatlar qanday ro'yobga chiqishi, orzularga erishish imkoniyatlarining kaliti Mutolaa atalmish bir qo'riqchining qo'lida ekanligi kimgadir ma'lum, kimlargadir noma'lum. Biz har qanday bilimni, ilmni, malaka-yu ko'nikmalarni Mutolaa tufayli qo'lga kiritamiz. Shunday ekan mutolaa qilishda hamisha jiddu jahd bilan turishimiz lozim...

Kalit so'zlar: mutolaa, maqsad, time management,

Qalam qurib, saxifalar ko'tarilib, buyruq bajarildi, qazoyi qadar yozib qo'yildi. "Bizga faqat Alloh biz uchun yozib qo'ygan narsagina yetur" ("Tavba" surasi, 51-oyat)

Mutolaa - Diqqat bilan o'qish, o'qib tushunib olish

Maqsad - inson amaliy faoliyatining avvaldan fikran o'ylangan natijasi. Maqsad insonlarga xos bo'lib, uni kelajakning loyihasi, deb ta'riflash mumkin.

Time managment - vaqtni to'g'ri taqsimlash va boshqarish

Kurrayi zaminimizda qanchadan qancha insonlar mavjud. Ularning har biri o'zi uchun farovon hayot kalitini qidiradilar. Vaholangki bu kalit yonginamizda. Bu narsa biz ko'rmagan, biz e'tibor qilmagan, tokchalarimizda faqatgina bir bezak vazifasini o'tayotgan kitoblarimizdir. Kitob mutolaasiga kirishish, o'qishga berilish, aqlni foydali ishlar bilan o'stirish, band qilish saodat kalitidir.

Kitob- holis xamsuhbat, aldamaydigan do'st, malol olmaydigan hamroh. Bu bizga farovon hayot eshigini ochadi. Bunday hayotning ma'nosini anglash, kitobga bo'lgan muhabbatni yanada oshiradi. Farovon hayot bu, gunohlardan, g'iybat-u malomatlardan holi, g'am kelsa sabr qilib, xursandchilikda shukur qilib, Allohga hamd, Rasuliga salovat aytib, solih soliha farzandlar tarbiyalab, yaxshiliklar qilib, mo'min musulmalik martabalarimizni oshirib yashashdir.

Kitobga qaraganimiz sari foydalanamiz, rohatimiz ko'payadi, zehnimizni o'tkiraydi, tilimizni ravon, ifodamizni ko'rkam, ruhimizni tetik, qalbimizni obod qiladi, bizga xalq xurmatini, yaqinlarimiz sadoqatini bag'shida qiladi. Faqatgina kitob o'qish orqali saodatga erishasiz. Shu o'rinda mutolaaning foydali taraflarini ham aytib o'tmoqchiman:

- G'am-anduhnlarni haydaydi
- Nohaqlikka tushishdan saqlanadi
- Bekorchilikdan, dangasalikdan yiroq bo'ladi
- Aql rivojlanadi, zehn yangilanadi, xotira kuchayadi

- Bilimga boy bo'lib, yodlash tushunchasi ko'p bo'ladi
- Ilmiy malakalarini oshiradi, xayot xaqidagi madaniy ongini oshiradi
- Iymoni ziyoda bo'ladi, hususan Islom dini xaqidagi kitoblarni o'qiganda. Zero, kitob - eng buyuk nasixatchi, yomonliklardan qaytarguvchi va yaxshi ishlarga buyurguvchidir.

Mutolaa kasalliklarga davo, har nega shifo jarayondir. Biz farzand tarbiyasi deymizmi, oilada muomala madaniyati deymizmi, nimanidir, qaysidir faoliyat boshlamoqchimizmi, albatta mutolaa yetakchi o'rinda. Chunki, kitob mutolaasidan foydalanmas ekanmiz, ilmga, bilimga, malakaga ega bo'lishimiz amru mahol. Biz hayot kechirar ekanmiz o'z vaqtimizni ma'lum bir darajada taqsimot qilib olishimiz kerak. Rejalashtirilgan ish samaraliroqdir. Hozirgi kunda vaqt eng bebaho narsadir. Hech kim bir kunda 25-soatni yarata olmaydi, shunday ekan vaqtni to'g'ri taqsimlash orqali eng samarali unumdorlikga ega bo'lish mumkin.

Harakatlaringizni rejalashtiring:

Ertangi kuningiz uchun bajarish kerak bo'lgan ishlarni daftarga yozib chiqing. Ushbu ishlarni to'rt guruhga bo'ling. Bu guruhlar quyidagicha:

Shoshilinch va muhim

Muhim, ammo shoshilinch emas

Shoshilinch, ammo juda muhim emas

Ahamiyatsiz va shoshilinch bo'lmagan

Bunday taqsimot sizga manfaatli xizmat qiladi. Rejalaringiz orasiga kitob mutolaasini ham kirgizing. Bu barcha taqsimlaringizdan unumliroqdir.

Kitob mutolaasiga yana qaytar ekanmiz, ko'pchilik, afsuski, kitob o'qishni bilmaydi va ko'p kishilar nima uchun o'qiyotganini tuzukroq tushunib ham yetmaydilar. Ba'zilar buni savodli bo'lishning qiyin, biroq yagona yo'li, deb biladi. Ularning fikricha, har qanday kitob kishini "o'qimishli" qila oladi. Boshqa birovlar uchun esa o'qish, bu – dam olish, shunchaki vaqtni o'tkazish va ularga nimani o'qish baribir, zerikarli bo'lmasa bas. Shunchaki dam olish, vaqt o'tkazishni istagan va "o'qimishli" bo'lish haqidagina qayg'uradigan o'quvchi kitobdagi dilni poklovchi, kishini ruhlantiruvchi qandaydir noma'lum bir kuchni sezadi. Biroq bu kuchni u aniq tasavvur etolmaydi va baholay ham olmaydi. Bunday kitobxon tibbiyotdan mutlaqo bexabar bemorga o'xshaydi, ya'ni aynan qaysi dori

kerakligini anglamasdan, har bir qutichadagidan tatib ko'ra boshlaydi. Aslida, mutolaa borasida ham har bir kishi o'zi uchun zarur, yangi kuch hamda ruhiy ta'sir baxsh eta oladigan kitoblarnigina topa bilishi maqbul emasmi?

Agar har bir o'qilgan kitob quvonch va alam, shijoat hamda ruhiy tazarru olib kelmasa, jahon adabiyoti tarixini bilishdan ma'no yo'q. Fikr-mulohaza qilmasdan o'qish – xushmanzara tabiat qo'ynida ko'zni bog'lab yurmoq demak. Biz o'zimizni va turmushimizni unutish uchun emas, balki hayot jilovini yanada ongliroq ravishda anglash uchun o'qishimiz kerak. Kitobga dimog'dor o'qituvchiga qaragan qo'rqqoq o'quvchi singari emas, balki eng baland cho'qqini zabt etmoqqa shaylangan shiddatkor alpinist kabi yondashmoq talab etiladi. Ruhiyatimizning tabiiy, tug'ma ehtiyoji – tur, xil, namunalarni aniqlab olish va ular asosida butun insoniyatni tur-turga ajratib chiqishni taqozo etadi.

Teofrast "Xarakterlar"idan tortib, to'rt ajdodlarimiz va ota- bobolarimizning to'rt mizoj to'g'risidagi tushunchalari va eng zamonaviy psixologiyaga qadar, mana shu ehtiyoj turlangan tartibda muntazam namoyon bo'lib, sezilib turadi. Qolaversa, har qanday kishi ham atrofidagi odamlarni yoshligida o'zi uchun muhim xarakterlar bilan o'zaro o'xshashligiga qarab, ko'pincha g'ayriushuriy bir tarzda guruhlariga bo'lib chiqishi tabiiy. Bunday bo'linishlar, qanchalik jozibali va yoqimli bo'lmasin, sof shaxsiy tajribaga yoki qandaydir ilmiy tipologiyaga asoslanishidan qat'i nazar, har qanday odamda ham har qaysi turga xos xususiyat, belgilar va o'ta qarama-qarshi xarakterlar hamda mizojlar, bir-biri bilan o'zaro almashinib turadigan holatlar yanglig', har bir alohida shaxsda uchrashi mumkinligini ta'kidlab, tajribaning yangi kesimini belgilab olish ba'zan o'rinli va samarali bo'lishi mumkin.

Xulosa qismi:

Shunday qilib, mutolaa bizning hayotimizga qanchalar taʼsir etishini, uning samarali taraflarini, ozgina vaqtimizni shu ish uchun bagʻishlasak bizga olam olam muvoffaqiyatlar olib kelishi toʻgʻrisida tushunchaga ega boʻldik. Biz kitob oʻqishni faqatgina vaqt oʻtkazish uchun emas, aksincha vaqtimizni keraksiz narsalarga sarflashdan tiyilish uchun amalga oshirishimiz kerak.

Paygʻambarimiz sollallohu alayhi vasallam Xiro gʻorida ibodatda boʻlganlarida Jabroil alayhissalom ilk vahiy keltirganlarida "Oʻqi!" deb ilk farmoni oliyni keltirganlar.

Bizga oʻqishni buyurgan zot Alloh Taolo albatta javobini ham soʻrab oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Mahzun boʻlma" Shayx Oiz al-Qarniy; arab tilidan Z. Mansurov tarjimasi. - Toshkent:"Oʻzbekiston"NMIU, 3- nashri, 2021.
2. "Islom tarixi" Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Nashriyot: «Hilol» nashriyot manbasi 2017 y.